Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 811.112.2

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

OAV DISKURSIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEGITIMIZATSIYA FUNKSIYASI: NEMIS VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA

Nilufar Shukurillayevna Matxoliqova*

O’zbekiston Milliy universiteti

✉ matxoliqovanilufar7@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada nemis va o‘zbek OAV diskursida frazeologik birliklarning legitimizatsiya funksiyasi qiyosiy-pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Nemis va o‘zbek OAVlaridan tanlangan kontekstlar asosida frazeologizmlarning muayyan qaror, harakat va tashabbuslarni asosli, zarur yoki maqbul sifatida talqin qilishdagi roli aniqlanadi. Tahlil legitimizationning kelajakdagi foyda va taraqqiyot, avtoritet, zarurat, krizis hamda jamoatchilik talabi kabi kontekstual omillar bilan bog‘liq holda yuzaga chiqishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar

frazeologik birlik, OAV diskursi, legitimization, pragmatik funksiya, legitimization strategiyasi, metaforik model.

DOI: 10.5281/zenodo.23277760

KIRISH

Ommaviy axborot vositalari tilida frazeologik birliklar axborotni obrazli va ta’sirchan ifodalash bilan birga, muayyan voqea, qaror va harakatlarni baholash hamda ularning jamoatchilik tomonidan qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Shu jihatdan frazeologizmlarning OAV diskursidagi pragmatik funksiyalarini o‘rganish ularning kommunikativ imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday funksiyalardan biri **legitimizatsiya** bo‘lib, u muayyan qaror, harakat, siyosiy pozitsiya yoki tashabbusni asosli, zarur yoxud maqbul sifatida diskursiv talqin qilish bilan bog‘liq. Frazeologik birliklarning obrazli semantikasi bunda voqea yoki harakatga muayyan interpretativ ramka berib, uning ijobiy natijasi, zarurati, istiqboli yoki asoslanganligini kuchaytirishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi nemis va o‘zbek OAV diskursida frazeologik birliklarning legitimizatsiya funksiyasini qiyosiy-pragmatik jihatdan aniqlashdir. Tadqiqot materiali sifatida nemis va o‘zbek OAV matnlaridan tanlangan sakkizta kontekstual misol olindi. Materialni tahlil qilishda kontekstual, semantik, pragmatik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LEGITIMIZATSIYA FUNKSIYASI

Legitimizatsiya diskursda muayyan harakat, qaror yoki pozitsiyani asosli, zarur va maqbul sifatida taqdim etishga xizmat qiluvchi pragmatik jarayondir. T. van Leeuwen legitimizatsiyaning *authorization, moral evaluation, rationalization* va *mythopoesis* kabi asosiy kategoriyalarini ajratadi [1]. Mazkur tasnifda *authorization* institutsional yoki shaxsiy avtoritetga, *rationalization* esa harakatning maqsadi, foydasi va ijtimoiy bilimlarga tayangan holda asoslanishi bilan bog‘liq [1].

Frazeologik birliklar o‘zining obrazli va baholovchi imkoniyatlari orqali bunday legitimatsion jarayonlarda ishtirok etishi mumkin. Frazeologizmlarning barqarorligi va obrazli semantikasi ularni diskursda

tayyor interpretativ vosita sifatida qo‘llash imkonini beradi [2]. Konseptual metafora nuqtayi nazaridan esa abstrakt hodisalarning konkret jismoniy tajriba orqali anglanishi *yo‘l*, *qadam*, *zamin*, *yo‘nalish* kabi obrazlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni konseptuallashtirishdagi rolini tushuntirish imkonini beradi [3].

Biroq legitimizatsiya frazeologik birlikning doimiy lug‘aviy funksiyasi sifatida emas, **kontekstual-pragmatik funksiya** sifatida qaraladi. Uning yuzaga chiqishida frazeologizm bilan bir qatorda maqsad, natija, foyda, zarurat, avtoritet, krizis yoki jamoatchilik talabi kabi kontekstual omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun mazkur tadqiqotda frazeologizmlar alohida holda emas, ular qo‘llangan OAV konteksti bilan birgalikda tahlil qilinadi.

O‘ZBEK OAV DISKURSIDA FRAZEOLOGIK LEGITIMIZATSIYA

O‘zbek OAV materiallari tahlili frazeologik birliklarning qaror va tashabbuslarni, avvalo, ularning amaliy natijasi, istiqboli va ijtimoiy foydasi orqali legitimizatsiya qilishda ishtirok etishini ko‘rsatadi.

Birinchi kontekstda *yo‘lga qo‘ymoq* birligi yangi tashkil etilgan faoliyatni maqsadli va amaliy jarayon sifatida ifodalaydi: “Qabullar uyi atrofida vohaning boy tarixini aks ettiruvchi fotoko‘rgazmalar va milliy hunarmandchilik ustaxonalari faoliyati **yo‘lga qo‘yilgan**”. Kontekstda yangi infratuzilmaning ish o‘rinlari yaratish, turizmni rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish kabi natijalari ham ko‘rsatiladi. Natijada frazeologizm **AMALIY FAOLIYAT → IJTIMOIY FOYDA → MAQBULLIK** munosabatining shakllanishida ishtirok etadi.

Ikkinchi misolda legitimizatsiya istiqbol va kelajakdagi natija bilan bog‘lanadi: “Bu imkoniyatlar qo‘shma ishlab chiqarishlarni yo‘lga qo‘yish, agrar kooperatsiyani rivojlantirish, tadbirkorlik aloqalarini kengaytirish hamda fuqarolarni tashkiliy asosda ish bilan ta’minlash uchun **mustahkam zamin yaratadi**”. *Zamin* komponenti konkret fazoviy tushunchadan abstrakt asos ma’nosiga ko‘chib, mavjud imkoniyatlarni kelajakdagi iqtisodiy faoliyatning barqaror tayanchi sifatida konseptuallashtiradi. Bunda **ZAMIN → ASOS → KELAJAKDAGI NATIJA** modeli hamkorlikka qaratilgan chora-tadbirlarning maqsadga muvofiqligini kuchaytiradi.

Uchinchi kontekstda yangi Toshkent–Samarqand avtomagistrali qurilishi “mamlakatimiz transport infratuzilmasini rivojlantirishdagi navbatdagi **ulkan tarixiy qadam**” sifatida tavsiflanadi. *Qadam* obrazi rivojlanishni oldinga harakat sifatida konseptuallashtiradi. Frazeologik baholash matnda safar vaqtining 5 soatdan 2,5 soatga qisqarishi va yuk tashish tannarxining 20–24 foizga pasayishi kabi miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan mustahkamlanadi. Shu tariqa **QADAM → TARAQQIYOT → AMALIY NATIJA** modeli loyihaning ahamiyatini legitimizatsiya qilishga xizmat qiladi.

To‘rtinchi misolda *to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymoq* pensiya tizimini isloh qilish kontekstida qo‘llanadi: “Mamlakatimizda pensiya tizimi **to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa**, iqtisodiyotga uzoq muddatli mablag‘larni jalb qilish mumkin”. Keyingi jumlada ushbu fikr xalqaro moliyaviy va mehnat tashkilotlari ekspertlari tomonidan tasdiqlanishi qayd etiladi. Bu holatda frazeologik ramka ratsional foyda va ekspert avtoriteti bilan birlashib, islohot zaruratini asoslashga xizmat qiladi.

Demak, tahlil qilingan o‘zbek OAV kontekstlarida frazeologik legitimizatsiya **amaliy foyda, istiqbol, taraqqiyot va ekspert avtoriteti** bilan bog‘liq argumentativ vositalar bilan birgalikda yuzaga chiqadi.

NEMIS OAV DISKURSIDA FRAZEOLOGIK LEGITIMIZATSIYA

Nemis OAV materiallarida frazeologik birliklar siyosiy qaror va harakatlarni kelajakdagi maqsad, institutsional avtoritet, krizis va jamoatchilik talabi orqali legitimizatsiya qilishda ishtirok etadi.

Birinchi kontekstda *die Weichen stellen* frazeologizmi yashil texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan kelishuv bilan bog‘liq holda qo‘llanadi: “Mit dem neuen Abkommen zur Förderung grüner Technologien will Europa **die Weichen für eine klimaneutrale Industrie stellen**”. Temiryo‘l harakatiga asoslangan *Weiche* obrazi kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishini belgilash ma’nosiga ko‘chadi. Natijada **RICHTUNG → ZUKUNFT → LEGITIMITÄT** modeli hozirgi qarorni istiqboldagi ijobiy maqsad bilan asoslashga xizmat qiladi.

Ikkinchi misolda *ein Machtwort sprechen* siyosiy nizo sharoitida qo‘llangan: “Nach dem tagelangen öffentlichen Streit innerhalb der Ampel-Koalition über die Reform der Rentenversicherung musste der Bundeskanzler schließlich **ein Machtwort sprechen**, um die Handlungsfähigkeit der Regierung zu demonstrieren”. Bu yerda *musste* modal fe’li va *um die Handlungsfähigkeit der Regierung zu demonstrieren* maqsad konstruktsiyasi kansler aralashuvini oddiy hokimiyat namoyishi emas, balki hukumat faoliyatini ta’minlash uchun zarur

harakat sifatida ramkalaydi. Frazeologizm shu tariqa **AUTORITÄT → NOTWENDIGKEIT → LEGITIMITÄT** munosabatining shakllanishida qatnashadi.

Uchinchi kontekstda *die Reißleine ziehen* keskin siyosiy qarorning zaruratini ifodalaydi: “Nach den katastrophalen Umfragewerten und internen Streitigkeiten in der Migrationspolitik musste der Parteivorstand schließlich **die Reißleine ziehen** und den Kurs radikal ändern”. Favqulodda vaziyatni to‘xtatishga asoslangan obraz *katastrophale Umfragewerte* va *interne Streitigkeiten* kabi salbiy kontekstual markerlar bilan kuchayadi. Natijada siyosiy kursni keskin o‘zgartirish **KRISE → NOTWENDIGKEIT → HANDLUNG** modeli orqali zarur chora sifatida legitimizatsiya qilinadi.

To‘rtinchi misolda *den Karren aus dem Dreck ziehen* murakkab siyosiy vaziyatdan chiqish ma’nosini ifodalaydi: “Die Wähler erwarten nach den monatelangen Blockaden innerhalb der Ampel-Koalition keine großen Reformen mehr, sondern schlichtweg, dass der Kanzler **den Karren aus dem Dreck zieht**”. Bu kontekstda legitimatsiyaning manbai faqat siyosiy institut emas, balki *die Wähler erwarten* konstruksiyasi orqali ifodalangan jamoatchilik talabidir. Botib qolgan aravani chiqarish obrazi siyosiy muammoni bartaraf etish bilan bog‘lanib, **PROBLEM → GESELLSCHAFTLICHE ERWARTUNG → LÖSUNG** modelini yuzaga keltiradi.

Shunday qilib, tahlil qilingan nemis OAV kontekstlarida frazeologik legitimizatsiya kelajakni ijobiy yo‘naltirish bilan bir qatorda, **institutsional avtoritet, krizis va zarurat hamda jamoatchilik talabi** orqali ham shakllanadi.

NEMIS VA O‘ZBEK OAV DISKURSIDA LEGITIMIZATSIYANING QIYOSIY TAHLILI

Qiyosiy tahlil har ikki tilda frazeologik birliklar qaror va harakatlarni muayyan interpretativ ramka orqali asoslashga xizmat qilishini ko‘rsatadi. O‘zbek materialida *yo‘lga qo‘ymoq, mustahkam zamin yaratmoq, ulkan tarixiy qadam, to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymoq* birliklari asosan amaliy foyda, istiqbol, taraqqiyot va ekspert avtoriteti bilan bog‘lanadi. Nemis materialidagi *die Weichen stellen, ein Machtwort sprechen, die Reißleine ziehen, den Karren aus dem Dreck ziehen* birliklarida esa kelajakni yo‘naltirish, institutsional avtoritet, krizis, zarurat va jamoatchilik talabi namoyon bo‘ladi.

1-jadval. Nemis va o‘zbek OAV diskursida frazeologik legitimizatsiya modellari

Frazeologik birlik	Til	Asosiy obraz	Legitimizatsiya mexanizmi	Pragmatik natija
yo‘lga qo‘ymoq	O‘zbek	yo‘l / harakat	amaliy natija va ijtimoiy foyda	faoliyatni maqsadga muvofiq sifatida ko‘rsatish
mustahkam zamin yaratmoq	O‘zbek	zamin / tayanch	istiqbol va kelajakdagi foyda	hamkorlikni asosli va istiqbolli sifatida ko‘rsatish
ulkan tarixiy qadam	O‘zbek	qadam / harakat	taraqqiyot va tarixiy ahamiyat	loyihaning muhimligini kuchaytirish
to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymoq	O‘zbek	yo‘l / yo‘nalish	ratsional foyda va ekspert avtoriteti	islohot zaruratini asoslash
die Weichen stellen	Nemis	yo‘nalishni belgilovchi strelka	kelajak va ijobiy maqsad	qarorni istiqbolga yo‘naltirilgan chora sifatida ko‘rsatish
ein Machtwort sprechen	Nemis	hokimiyat / so‘z	institutsional avtoritet va zarurat	qat’iy aralashuvni asoslash
die Reißleine ziehen	Nemis	favqulodda to‘xtatish	krizis va zarurat	keskin chorani zarur sifatida ko‘rsatish
den Karren aus dem Dreck ziehen	Nemis	botgan aravani chiqarish	muammo va jamoatchilik talabi	faol aralashuvni zarur yechim sifatida ko‘rsatish

Har ikki til materialida harakat va yo‘nalish obrazlari legitimatsiyaning muhim konseptual manbai bo‘lib, qaror va tashabbuslarni rivojlanishga yo‘naltirilgan jarayon sifatida talqin qilishga xizmat qiladi. O‘zbek kontekstlarida legitimizatsiya ko‘proq ijobiy natija, foyda va taraqqiyot bilan, nemis materialida esa krizis, zarurat, institutsional avtoritet va jamoatchilik talabi bilan bog‘lanadi. Mazkur farqlar sakkizta kontekst doirasidagi kuzatuvlar sifatida baholanadi. Farqli jihat shundaki, tahlil qilingan o’zbek kontekstlarida legitimizatsiya ko‘proq **ijobiy natija, foyda va taraqqiyot** bilan

bog‘langan bo‘lsa, nemis kontekstlarida **krizis, zarurat, institutsional avtoritet va jamoatchilik talabi** ham faol legitimatsion asos sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq bu farq sakkizta kontekstdan iborat tanlanma doirasidagi kuzatuv bo‘lib, uni nemis va o‘zbek OAV diskursiga umumiy xususiyat sifatida mutlaqlashtirish mumkin emas.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil natijalari nemis va o‘zbek OAV diskursida frazeologik legitimizatsiya kelajak va istiqbol, amaliy foyda, taraqqiyot, avtoritet, zarurat, krizis hamda jamoatchilik talabi kabi pragmatik omillar orqali yuzaga chiqishini ko‘rsatdi. Har ikki til materialida konkret jismoniy va fazoviy obrazlar abstrakt ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni konseptuallashtirish vositasiga aylanib, qaror va harakatlarga muayyan interpretativ ramka beradi.

Bunda legitimizatsiya faqat frazeologizm semantikasi bilan emas, balki uning argumentativ konteksti bilan birgalikda shakllanadi. Statistik ma’lumot, ekspert fikri, modal zarurat yoki jamoatchilik talabi frazeologik obrazning legitimatsion imkoniyatini kuchaytiradi. Shu sababli frazeologik legitimizatsiyani birlikning doimiy lug‘aviy xususiyati emas, balki **frazeologik obraz va diskursiv kontekst o‘zaro ta’sirida yuzaga keladigan kontekstual-pragmatik funksiya** sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Nemis va o‘zbek OAV materiallarining qiyosiy-pragmatik tahlili frazeologik birliklar muayyan qaror, harakat va tashabbuslarni asosli, zarur yoki maqbul sifatida talqin qilishda ishtirok etishini ko‘rsatdi. Tahlil qilingan kontekstlarda legitimizatsiya kelajakdagi foyda va taraqqiyot, ratsional asoslash, avtoritet, krizis, zarurat hamda jamoatchilik talabi bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi.

Frazeologik obraz qaror yoki harakatga interpretativ ramka bersa, statistik ma’lumotlar, ekspert fikri, modal vositalar va ijtimoiy ehtiyoj uning argumentativ asosini kuchaytiradi. Demak, OAV diskursida frazeologik legitimizatsiya **frazeologik obraz va kommunikativ kontekstning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanuvchi pragmatik funksiya** sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Van Leeuwen T. Legitimation in Discourse and Communication // Discourse & Communication. – 2007. – Vol. 1, No. 1. – P. 91–112.

[2] Burger H. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen. 5., neu bearbeitete Auflage. – Berlin: Erich Schmidt Verlag, 2015. – 241 S.

[3] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Prezidentimiz Xivada yirik tadbirlar uchun infratuzilma bilan tanishdi.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Shavkat Mirziyoyev Belarusga tashrif davomida hududlararo hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha erishilgan kelishuvlar ijrosiga doir taqdimot bilan tanishdi.

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Toshkentdan Samarqandga yetib borish vaqti 5 soatdan 2,5 soatga qisqaradi.

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Shavkat Mirziyoyev pensiya tizimini isloh qilish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

[8] Frankfurter Allgemeine Zeitung.

[9] Tagesschau.

[10] DIE ZEIT.